



TOSHKENT VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI



***TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI***

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.



Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlikda
(2020/2021-o'quv yili boshida)



2

• Chirchiq shahar

2

• Olmaliq shahar

3

• Qibray tumani

1

• Zangiota tumani




Toshkent viloyatida oliy ta'lim tizimida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 8 ta oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 2 ta insitut, 4 ta universitetlar va 2 ta filiallari faoliyat yuritmoqda.

Toshkent viloyatida 2020/2021-o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari soni 8 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 taga ko'paydi.



Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



2020/2021- o'quv yili
boshiga oliy ta'lim
tashkilotlarida jami
28,5 ming nafar talaba
tahsil olmoqda.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



ayollar

38,5%



2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlarida jami 28,5 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 10,9 ming nafarini (38,5 % ni) ayollar va 17,5 ming nafarini erkaklar (61,5 % ni) tashkil etdi.



erkaklar

61,5%




**Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi
bo'yicha taqsimlanishi, kishi
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**



Jami	28509	23 yosh	2085
17 yosh va undan kichik	163	24 yosh	1668
18 yosh	3723	25 yosh	1444
19 yosh	3879	26-29 yosh	3277
20 yosh	3289	30-34 yosh	1958
21 yosh	2914	35-39 yosh	796
22 yosh	2594	40 yoshdan kotta	96

2020/2021- o'quv yili boshiga Toshkent viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarida 28,5 ming nafar talaba ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 2,9 ming nafari 21 yoshni, 3,2 ming nafari 20 yoshni, 2,5 ming nafari 22 yoshni, 2,0 ming nafari 23 yoshni tashkil etmoqda.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlariga jami 9240 nafar talaba qabul qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,9 % ga oshgan.



Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirganlar soni (2020- yil, kishi)



310

• Olmaliq

2072

• Chirchiq

1659

• Qibray



2020- yilda Toshkent viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarini jami 4041 nafar talabalar tamomlagan bo'lib, ulardan 1665 nafarini ayollar (41,2% ni) tashkil etsa, 2376 nafari erkaklar (58,8 % ni) dan iborat.

**Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-
o'qituvchi xodimlari soni, kishi
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**



2020/2021- o'quv yili boshida Toshkent viloyati oliy ta'lim tashkilotlarida jami 1409 nafar professor-o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 508 nafari ayollar (36 %) ni tashkil etsa, 901 nafari erkaklar (64 %) dan iborat.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-86-80